

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Dilnoza Meylieva Rakhmatillayevna

Magistrant, dilnozameylijeva336@gmail.com

UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY

Abstrakt — maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashga qo'yiladigan pedagogik talablar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida ta'limning asosiy vazifasi — mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxsni shakllantirish ekani ta'kidlanadi. Ijodiy salohiyatning psixologik-pedagogik xususiyatlari, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi omillar, divergent fikrlash, tasavvur va refleksiya kabi ichki komponentlar yoritiladi. Shuningdek, konstruktivizm, faoliyat yondashuvi, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika hamda STEAM-integratsiya ushbu jarayonning metodologik asoslari sifatida ko'rib chiqiladi.

Аннотация — в статье дан научно-теоретический анализ педагогических требований к подготовке младших школьников к творческой деятельности. Подчеркивается, что в условиях глобализации основная задача образования — формирование самостоятельной и творческой личности. Раскрываются психолого-педагогические особенности творческого потенциала, факторы развития креативного мышления, такие внутренние компоненты, как дивергентное мышление, воображение и рефлексия. Также рассматриваются конструктивизм, деятельностный подход, проблемное обучение, личностно-ориентированная педагогика и STEAM-интеграция как методологические основы развития творческой активности младших школьников.

Abstract — this article provides a scientific-theoretical analysis of the pedagogical requirements for preparing primary school pupils for creative activity. It emphasizes that, in the context of globalization, the main goal of education is to develop independent and creative individuals. The psychological and pedagogical nature of creative potential, factors that foster creative thinking, and internal components such as divergent thinking, imagination, and reflection are discussed. Furthermore, constructivism, the activity-based approach, problem-based learning, learner-centered pedagogy, and STEAM integration are examined as methodological foundations for developing creative activity among primary school pupils.

Kalit so'zlar - Ijodiy faoliyat, boshlang'ich ta'lim, pedagogik talablar, kreativ fikrlash, divergent tafakkur, konstruktivizm, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, STEAM-integratsiya, motivatsion komponent, kognitiv komponent, emotsional muhit, pedagogik innovatsiyalar, rivojlantiruvchi ta'lim, ijodiy salohiyat, ta'lim muhiti, interfaol metodlar, loyihaviy yondashuv, ijodiy kompetensiya.

1. KIRISH

Bugungi globallashuv va innovatsion rivojlanish davrida ta'lim tizimining asosiy maqsadi - mustaqil, tashabbuskor va ijodiy shaxsni tarbiyalashdan iborat. Jamiyatdan olinayotgan talablar kuchayib borgan sayin, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish shunchaki qo'shimcha mashg'ulot emas, balki ta'limning strategik yo'nalishi bo'lishi zarur[1][3]. Boshlang'ich ta'lim esa bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolalarning tabiiy qiziquvchanligi, tasavvuri va o'z-o'zini ifodalashga bo'lgan ehtiyoji ijodiy faoliyatga yo'naltiriladi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini samarali ijodiy faoliyatga tayyorlash uchun ta'lim jarayoniga qator pedagogik talablarni qo'yish dolzarb ahamiyat kasb etadi[1][3][4]. Bu talablar ijodiy muhitni yaratish, didaktik mazmunni boyitish va o'qituvchi faoliyatini qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

2. NAZARIY ASOSLARI.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash — pedagogika fanining dolzarb, chuqur nazariy yondashuvlarni talab etadigan yo'nalishlaridan biridir. Ijodkorlik — shaxsning yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud bilimlar asosida yangicha yondashuv yaratish, o'z imkoniyatlarini qayta kashf qilish orqali namoyon bo'ladigan, ko'p qirrali psixologik-pedagogik jarayondir[4][6]. O'quvchi yoshida ijodkorlik tabiiy tarzda faol bo'ladi, biroq uni rivojlantirish, to'g'ri yo'naltirish, o'quv jarayoniga integratsiya qilish pedagogning mahorati, metodik yondashuvi va ta'lim muhitining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Shu sababli boshlangan har bir ta'limiy qadam ilmiy asoslangan, psixologik qonuniyatlarga tayanadigan va didaktik jihatdan puxta yo'lga qo'yilgan bo'lishi zarur. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning nazariy poydevorlari batafsil yoritiladi. Ijodiy faoliyat mohiyatini tushunish uchun avvalo ijodkorlikning psixologik tabiatini anglash zarur. Psixologlar (L.S. Vygotskiy, A. Maslou, J. Gilford, R. Sternberg) ta'kidlaganidek, har bir bola tug'ma ijodkorlik unsurlariga ega. Ammo bu salohiyat atrof-muhit va ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga qarab:

- **kuchayishi,**
- **susayishi,**
- **yoki umuman namoyon bo'lmay qolishi**

mumkin.

O'quvchining tasavvuri, emotsional kechinmalari, qiziquvchanligi, tafakkur tezligi va yangi g'oyalarni yasashga moyilligi — barchasi ijodiy faoliyatning ichki ko'rsatkichlaridir. Boshlang'ich yoshda bu ko'rsatkichlar eng faol bosqichga kiradi. Shuning uchun pedagogik jarayon ana shu tabiiy rivojlanish energiyasini qo'llab-quvvatlashi va uni to'g'ri yo'naltirishi zarur.



1-rasm.

Bu komponentlar ustida ishlash - ijodiy faoliyatning poydevori hisoblanadi. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda pedagogik tizimlarning o'rniga to'xtaladigan bo'lsak. Nazariy manbalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha bir qator ta'limiy yondashuvlar mavjud.

Konstruktivizm nazariyasi (Piaje, Bruner) ushbu nazariyada o'quvchi bilimni tayyor holda olmaydi, balki o'zi yaratadi. Bu ijodiy faoliyatning asosiy metodologik tamoyilidir [8], [9].

FAOLIYAT YONDASHUVI (LEONTEV, GALPERIN) BOLA BILIMSIZ, AMMO FAOLIYATSIZ O'RGANMAYDI. HAR QANDAY AMALIY MASHG'ULOT IJODIY TAJRIBANI OSHIRADI [3], [4].

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIKA HAR BIR O'QUVCHINING TABIIY IMKONIYATLARINI, QIZIQISHLARINI, INDIVIDUALLIGINI HISOBGA OLISH - IJODKORLIKNING ILDIZINI SUG'ORISHDIR [1], [2], [3].

MUAMMOLI TA'LIM NAZARIYASI - O'QUVCHI MUAMMONI KO'RADI, TAHLIL QILADI VA O'Z YECHIMINI TAKLIF QILADI, AYNAN IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANADI [7], [8].

Quyidagi jadvalda ijodiy faoliyatni tashkil etishda qo'llaniladigan nazariy model ko'rsatilgan.

1-jadval(Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat modeli)

Komponent	Ta'rif	Amaliy ko'rinish
Motivatsion	Qiziqish, ehtiyoj, intilish	Rag'bat, o'yin, musobaqa, maqtov
Kognitiv	Bilim, tasavvur, tafakkur jarayonlari	Topshiriqlar, muammoli vaziyatlar
Emotsional	Kechinmalar, hissiy barqarorlik	Ijobiy muhit, qo'llab-quvvatlash
Faoliyatli	Amaliy ijodiy bajarish jarayoni	Chizish, hikoya tuzish, loyiha bajarish

Refleksiv	O'z ishini baholash, xulosaga kelish	Portfel, sinf muhokamasi
------------------	--------------------------------------	--------------------------

Bu modelning barcha komponentlari uzviy ishlaganda, ijodkor shaxsning ichki potentsiali to'liq ochila boshlaydi.

DIVERGENT (KO'P YO'NALISHLI) FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA J. GILFORD NAZARIYADA IJODKORLIKNING ASOSIY BELGISINI **DIVERGENT FIKRLASH** DEB BELGILAYDI. YA'NI, BOLA BIR VAZIFA BO'YICHA BIR NECHTA TURLI YECHIMLAR TAKLIF QILA OLISHI KERAK.

Miasalan:

- "Uy rasmini chiz." emas, balki
- "Uy bo'lishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni tasvirlab ber."

Bu yondashuv tasavvurni keskin kengaytiradi.

KREATIV TOPSHIRIQLAR NAZARIYASIDA ESA TORRANS TESTLARI (TTCT) ASOSIDA YARATILGAN TOPSHIRIQLAR O'QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASHNING 4 ASPEKTINI RIVOJLANTIRADI.

- **Tezkorlik**
- **Moslashuvchanlik**
- **Originallik**
- **Mukammallik**

STEAM-INTEGRATSIYA NAZARIYASIDA SAN'AT VA FANLAR SINTEZI IJODIY FAOLIYATNI YANADA BARQAROR QILADI. MASALAN:

- **matematika + rasm**
- **texnologiya + hikoya**
- **tabiatshunoslik + model yaratish**

STEAM fanni nafaqat o'rgatadi, balki qo'llashni o'rgatadi - bu esa tabiiy ijodiy jarayondir.

Pedagogik muhit - bu faqat sinf emas. U quyidagi jihozlarda iborat.




2-rasm. Sinf xonasi.

1. DIDAKTIK MATERIALLAR YA'NI O'YINCHOQLAR, KO'RGAZMALAR, RANGLI KARTALAR VA RIVOJLANTIRUVCHI MATERIALLARDIR.
2. PSIXOLOGIK IQLIM – ISHTIROKCHILIK, HISSIY BARQARORLIK, HURMAT.
3. KOMMUNIKATIV MUHIT - GURUHDA ISHLASH, MUNOZARALAR, ERKIN FIKR ALMASHISH
4. TEXNOLOGIK MUHIT - INTERAKTIV DOSKALAR, MULTIMEDIALI DASTURLAR, RAQAMLI IJODIY PLATFORMALAR.

Bularning barchasi nazariy jihatdan ijodiy salohiyat ochilishini rag'batlantiradigan rivojlantiruvchi joyini tashkil qiladi[6][7][8].

Quyidagi grafik orqali ijodkorlikning boshlang'ich sinfda shakllanish bosqichlari tasvirlanadi.



3-rasm. Ijodiy rivojlantirish.

Bu bosqichlar ketma-ketlikda emas, balki spiral ko'rinishda takrorlanib boradi - bu esa tabiiy rivojlanishning belgisi.

3-jadval(Shaxsning ijodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar)

Tashqi omillar	Ichki omillar
Ta'lim muhiti	Qiziqish
Pedagogning yondashuvi	Temperament
O'yin-kreativ vositalar	Tasavvur kuchi
Oilaviy qo'llab-quvvatlash	Emotsional barqarorlik
Texnologik muhit	Motivatsiya

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy salohiyatning rivojlanishi nafaqat individual psixologik komponentlar - tasavvur, divergent fikrlash, emotsional barqarorlik va motivatsiya - bilan belgilanadi, balki u sistemali pedagogik sharoit, muvofiqlashtirilgan didaktik mazmun va o'qituvchining kreativ kompetensiyasi orqali ham mustahkamlanadi. Vygotskiy, Piaget, Bruner va zamonaviy ijodiyat tadqiqotchilarining nazariy tamoyillari ijodiylikni o'qitish jarayonida asosiy

yo'riqnomaga aylanishi kerak [6], [7], [8]. O'quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol konstruktiv subyekt sifatida qabul qilinadi. Pedagogik muhit muammoli, interfaol va loyiha yo'nalishli bo'lishi lozim. Hamda ta'lim faoliyati o'yin, dramatizatsiya, STEAM-integratsiya va loyiha metodi orqali boyitilishi zarur. Motivatsion, kognitiv, emotsional, faoliyatli va refleksiv komponentlar - amaliyotga aniq o'lchov va strategiyalar orqali aylantirilishi shart. Motivatsion omilni oshirish uchun o'quvchi qiziqishini uyg'otuvchi vazifalar, o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatlari va ijobiy rag'batlantirish tizimlari joriy etilishi lozim. Kognitiv komponentni mustahkamlash maqsadida divergent topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va integratsiyalashgan fanlararo mashg'ulotlar (xususan STEAM yondashuvi) muntazam ravishda qo'llanilishi kerak. Emotsional iqlim - xato qilishdan qo'rqqmaslik, hamfikrlilik va konstruktiv mulohaza madaniyati - o'quvchilarda ijodiy xavfsizlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2017.
2. Hasanboyeva O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
4. O'roqova M. Ilk va maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: "Sharq", 2016.
5. Qodirova F.R. Boshlang'ich ta'limda kreativ yondashuvlar. – Toshkent, 2021.
6. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – Cambridge: MIT Press, 2004.
7. Torrance E. Torrance Tests of Creative Thinking. – Boston, 2008.
8. Guilford J. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1971.
9. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 1960.

Internet manbalar.

10. O'zbekiston Respublikasi XTV. Boshlang'ich ta'lim davlat standarti, 2021.
11. UNESCO. Creative Teaching and Learning Models. – 2020.
12. OECD. Future of Education and Skills 2030 Framework. – 2022.
13. ERIC (Educational Resources Information Center).